

JARQO'RG'ON

Gazeta Xalq deputatlari Jarqo'rg'on tuman Kengashi va tuman hokimligi nashri

GAZETA 1932 YIL MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN • IJTIMOY-SIYOSIY GAZETA • WWW.JN-GAZETA.UZ

2021 yil
28 sentyabr,
seshanba
19-son
(8793)

VATANNI
SEVMOQ
IYMONDANDIR



Deputat minbari

YANGI O'ZBEKISTONNI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ



Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchilgimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatani taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi.

Bugungi tinch va farovon kunlarimizda butun xalqimiz O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilib, tariximizning eng murakkab va og'ir davrlarida davlatimizni boshqargan Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov nomini, u kishining bevosita rahbarligida, xalqimizning matonati va jasorati bilan amalga oshirilgan ulkan ishlarni esga olishimiz dardkor.

Istiqloq yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida muhim ishlar bajarildi. Qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Zamonaviy davlatchilik asoslari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari shakllandi.

Mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetini, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qur'olli Kuchlar barpo etildi.

Milliy valyutamiz - so'm joriy qilindi, oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi. Qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy-diniy qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklandi.

Muxtasar aytganda, ko'pni ko'rgan xalqimiz o'zining mustahkam irodasi va matonati, beqiyos salohiyatini namoyon etib, tarixan qisqa fursat ichida ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Vatanimiz jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi. Mana shunday buyuk tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etish nasib qilganidan ko'pchilik vatandoshlarim qatori men ham baxtiyorman.

Biz bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekiston davlatini, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda avvalo bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Davlat va jamiyatimizning siyosiy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, mamlakatni modernizatsiya qilish, bu jarayonda parlament va siyosiy partiyalarning rolini, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lami demokratik islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Demokratik asosiy talabi bo'lgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, so'z va vijdon erkinligini ta'minlashga

alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti 2017 yil 7-fevraldagi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017-yil — «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilindi.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot etirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishdan iboratdir.

M.TOSHMURODOVA,
11-maktab o'qituvchisi,
Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati.

«O'ZBEKISTONNING KELAJAGIGA BEFARQ EMASMAN»

Shu ezgu g'oya ostida, Jarqo'rg'on tumanidagi «Istirohat bog'i»da O'zbekiston «Adolat» SDP Jarqo'rg'on tuman Kengashi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil qilindi.

Tadbirda partiya viloyat Kengashi, tuman Yoshlar ishlari agentligi, BPT faollari, deputatlar, madaniyat sohasi vakillari, keng aholi qatlami vakillari, tuman yoshlari va OAV vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va galdagi ustuvor vazifalar hamda Yangi O'zbekistonimizni barpo etish, xalqimizning turmush farovonligini oshirishda «Adolat» SDPning ham o'zini borligi e'tirof etildi.

Bugungi kunda partiya inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida sidqidildan xizmat qilish, jamiyatimizning barcha faol qatlamlarini partiya g'oyalari atrofida birlashtirgan holda yurtimizdagi har bir inson farovonligini ta'minlash, Uchinchi Renessans poydevorini qurish borasidagi ulkan ishlarga munosib hissa qo'shishni o'z oldiga ustuvor vazifa sifatida qo'yg'an. Ana shundan kelib chiqib, Jarqo'rg'on tumanidagi bo'lib o'tgan ommaviy tadbirda so'nggi besh yilda xalqimiz hayoti va yurt taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan islohotlarning mazmun-mohiyati, «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat



idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oyada butun mazmuni o'z aksini topgan keng ko'lami yangilanishlar natijalarini aholimizning turli tabaqalari, jumladan, yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ushbu jarayonlarda partiyaning ishtirokini ko'rsatish kabi ezgu g'oyalarni mujassam edi. Mazkur ommaviy tadbirda shular haqida fikr-mulohazalar aytili, qizg'in muloqotlar qilindi.

O.JIYANOV,
Jarqo'rg'on tuman «Adolat» SDP tuman Kengashi raisi.

Farmoyish va ijro HARBIIY XIZMATGA CHAQIRUVGA TAYYORGARLIK

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 6-martdagi PQ-4630-son qaroriga asosan 2022-yilgi chaqiruv mavsumini yaqori saviyada o'tkazish uchun 1995-2004-yillarda tug'ilgan chaqiruluvchilarning oliyivi sharoitlarini, sog'lig'i va hujjatlarini o'rganish, oldindan qo'shin turlariga tanlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Chaqiruluvchilarni tanlab olish tartibi to'g'risida» 2019-yil 9-apreldagi 291-son qarori talablarini amalga tatbiq qilish maqsadida Jarqo'rg'on tuman hokimining farmoyishi chiqarildi. Unga ko'ra tuman hokimligi, tuman mudofaa ishlari bo'limi hamda aloqador mutasaddilar bilan birgalikda 2022-yilgi chaqiruv mavsumida fuqarolarni saralab olish bo'yicha dastlabki tanlovni joriy yilning 10-avgustidan 2022-yilning 10-fevral kuniga

qadar olib borish belgilandi.

Shu muddat davomida tuman Mudofaa ishlari bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan jadvalga asosan harbiy xizmatga chaqiruluvchilar umumjisoniy tayyorgarlik sinovidan o'tkaziladi hamda ular bilan yakka tartibdagi suhbatlar, tibbiy ko'rik uyushtiriladi.

Chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatlariga tanlab olish hamda o'rganish ishlari tegishli tashkilotlar va joylardagi mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlikda tashkil etish belgilandi.

Chaqiruluvchilarning umumjisoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan yakka tartibda suhbat o'tkazish bo'yicha tanlov kengashi tarkibi tasdiqlandi. Xullas, 2022-yilgi chaqiruv mavsumini uyushqoqlik bilan o'tkazish, harbiy xizmatga chaqiruluvchilarni tanlashda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O.MURODOV,
Jarqo'rg'on tuman Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i.



Хурматли газетхонлар, республикамизнинг оммавий нашрлари каби «JARQO'RG'ON» газетасига ҳам 2022 йил учун обунга ишлари қизғин бораёттир. Туманимизнинг ягона нашри, энг яқин йўдошингиз, ҳамфикр ва ҳамроҳингиз бўлган «JARQO'RG'ON» газетасининг обунасида фаол иштирок этишингизни сўраймиз.

«JARQO'RG'ON» га туман Почта бўлими ёки «Матбуот тарқатувчи» корхонаси ҳамда тўғридан-тўғри газета таҳририяти орқали обунга бўлишингиз мумкин.

«JARQO'RG'ON»нинг йиллик обунга баҳоси — 220 000 сўм.

Қўшимча маълумотлар учун тел: 76-43-21-661, 93-224-96-66.

1-Oktyabr — «O'qituvchi va murabbiylar» kuni



Ta'limni isloh qilmasdan taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shu sababli mamlakatimizda o'qituvchi va murabbiylarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatilmoqda.

S.MENGATOVA surat-lavhasi.

«Paxta—2021»

OQ XIRMONLAR YUKSALMOQDA

Bu yil tumanimiz paxtakorlari 7065 gektar maydonda g'oz'a parvarishlab, gektardan 35,3 sentnerdan, jami 24960 tonna «Oq oltin» yetishtirishni ko'zlashgandi. Bugungi kungacha (22.09.2021 y) 163 ta paxtachilik fermer xo'jaliklarining 50 ga yaqini shartnoma rejalarini yuz foizdan oshirib ado etib qo'yishdi.

Tuman dalalarida 15 ming nafarga yaqin terimchilarning shijoati tufayli kuniga 1 ming tonna (4 foiz)dan oshirib hosil yig'ishtirib topshirilmoqda. Mavsum boshidan beri tumanimiz bo'yicha belgilangan shartnoma rejasining 85,1 foizi yoki 21 ming 233 tonna «Oq oltin» davlat xirmoniga topshirildi.

Yig'im-terimning yuqori sifatda olib borilishiga hamda tumanimiz xirmonining kun sayin yuksalib borishiga «Obod Baraka Siymo», «Agro NurDiyor», «Panji Umud Bunyod», «O'tkir ko'z», «Oltin Mehnatobod paxtasi», «Abbos AR», «Muhammad Suxrob Surxon», «Yakkabog' O'rikli», «Akmal», «Irnazarov Rustam», «Abdimovmin Jo'rayev», «Jarqo'rg'on yulduzi Paxtaobod», «Toshguzar JAA» singari o'nlab ilg'or fermer xo'jaliklarining



serg'ayrat terimchilari munosib hissa qo'shishmoqda.

Yana bir g'ayrat ko'rsatishsa, tumanimizning yuksak xirmonni bunyod bo'ladi. Shuning uchun yog'in-sochinsiz kunlarda terim sur'atini oshirib, yaqin qolgan marrani zabt etaylik!

MUXBIRIMIZ.

Madaniy xizmat

PAXTAZORDA KUYLAR TARALDI



Jarqo'rg'on tumanining «Zartepa» MFY hududida joylashgan «Zartepa-Eksport» fermer xo'jaligi dalalarida paxta yig'im-terimida ishtirok etayotgan 200 nafarga yaqin hasharchi-terimchilarga tuman Madaniyat bo'limi san'atkorlari konsert qo'yib berishdi. Madaniyat bo'limi xonandalaridan B.Xoliyarov, A.Xushboqov, M.O'razov, O.Qodirov, B.Yodgorovlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar hasharchilarga chin ma'noda madaniy xordiq bag'ishladi. Tuman san'atkorlarining dalalarda jonbozlik ko'rsatayotgan hasharchi-terimchilari mehnatiga bunday g'amxo'r e'tibori hammaga manzur bo'ldi.

K.BAZANOVA.

BOSH VAZIR QABULXONASI TADBIRKORLARGA KO'MAKCHI

Jarqo'rg'on tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi, 2021-yil davomida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5718-son Farmoni ijrosi bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:


Jumladan, 2021-yilning o'tgan davrida tadbirkorlik sub'ektlari va tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan jismoniy shaxslardan jami 400 ta masalada 370 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ushbu murojaatlar tegishli bo'yicha «business.gov.uz» portaliga kiritilib, muammolarni ijobiy hal etish va amaliy yordam berish uchun mas'ul idora va tashkilotlarga yuborilib, o'rganib chiqildi.

Ushbu tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qilingan 400 ta murojaatlar sohalar kesimida tahlil qilinganda, ularning 185 tasi bank kreditlari bo'yicha, 58 tasi yer, kadastr masalasi, 9 ta soliq masalalari, 4 ta infratuzilma masalalari (elektr energiya va gaz tarmoqlariga ulanish) 2 ta sud masalalari, 4 ta mansabdor shaxslar harakati yoki harakatsizligi, qolgan 135 ta murojaat boshqa masalalardan iborat.

Mazkur murojaatlarining 102 tasi Sayyor qabullarda, 212 tasi «Ishon telefoni» orqali, 2 tasi «business.gov.uz» portaliga orqali, qolgan 46 ta murojaat bevosita qabulxonaga kelib tushgan murojaatlarni tashkil etadi. Xususan, murojaatlarning 333 tasi tuman, 55 tasi viloyat hamda 4 tasi respublika darajasida

o'rganiladigan masalalardir.

Kelib tushgan murojaatlardagi masalalarning 221 tasi (yoki 58%) qanoatlantirilgan bo'lsa, qolgan 161 ta (yoki 42%) murojaat mualliflariga tushuntirish berildi.



Hurmatli tadbirkorlar va fuqarolar! Tadbirkorlik faoliyatingizda turli xil muammolarga duch kelayotgan bo'lsangiz, tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining

nasining «Ishonch telefoni» raqami: 55-451-92-38.

R.TILAVOV,
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Jarqo'rg'on tumanidagi Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi mudiri.

JABRLANUVCHI MUSHFIQ AYOLLAR

2021-yil 11-may kuni Surxondaryo viloyat sudi JIB sudlov hay'ati tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha barcha tuman (shahar) sudlari tomonidan 2020-yil hamda 2021-yilning 3 oyida "Ayollarga nisbatan oilaviy nizolar negizida zo'raonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq ko'rilgan jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti" yuzasidan umumlashtirish o'tkazildi.

Oilaviy zo'raonliklar tahlili

2020-yil davomida va 2021-yil 3 oyida mazkur toifadagi 27(13) (Izoh: qavsdan tashqaridagi raqamlar 2020-yilga, qavs ichidagi raqamlar 2021-yil 3 oyiga tegishli)nafar shaxslarga nisbatan 27(13) ta jinoyat ishlari ko'rilgan bo'lib, shundan 20(10) nafar shaxsga nisbatan 20 (10) ta ish bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan bo'lsa, 5(3) nafar shaxsga nisbatan 5(3) ta ish JKning 66'-moddasiga asosan ta'riflarning yarashganligi munosabati bilan tugatilgan va 2(0) nafar shaxsga nisbatan 2(0) ta jinoyat ishi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash haqida qaror qabul qilingan.

Ayblov hukmi chiqarilgan 20(10) nafar shaxsning 4(2) nafariga JKning 57-moddasini qo'llab, qonunda ko'rsatilganidan ham yengilroq jazo tayinlanib, 1(1) nafariga jarima, 5(0) nafariga axloq tuzatish ishlari, 6(2) nafariga ozodlikni cheklash va 8(7) nafariga ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazo qo'llanilgan.

Umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, ushbu toifadagi jinoyat ishlarining qo'zg'atilishiga asos bo'lgan holatlar o'rganilganida, 19(6) ta holatda jabrlanuvchining shaxsan murojaati bo'yicha, 2(2) ta holatda yaqin qarindoshlarining murojaati yuzasidan hamda 6(5) ta holatda boshqa shaxslar yoki holatlar natijasida jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi va qarindoshlari darajasi o'rganilganida, 5(1) nafari 30 yoshgacha, 14(9) nafari 31-59 yoshgacha, 1(0) tasi 60 yoshdan yuqorini tashkil etgan bo'lsa, shundan 2(1) nafari ayollar va 18(9) nafari erkaklar tomonidan oilaviy nizolar negizida zo'raonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishgan.

Oilaviy nizo negizida zo'raonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq sodir etilgan jinoyat ishlari bo'yicha jabrlanuvchiga zo'raonlik va tazyiq o'tkazgan shaxsning qarindoshlik aloqasi o'rganilganida, 15(8) ta holatda turmush o'rtog'i, 1(0) ta holatda qaynaka, qaynuka, qaynopa va qaynsingil, 1(0) ta holatda ovsini, 1(0) ta holatda farzandi, 1(0) ta holatda ota-onasi, 1(0) ta holatlarda aka-ukalari va 4(2) ta holatda boshqa qarindoshlari tomonidan sodir etilgani ma'lum bo'ldi.

Jami ko'rilgan ishlar bo'yicha jabrlangan ayollar soni 26(13) nafarni tashkil etib, ularning yoshlari 1 tasi 18 yoshgacha, 7(6) tasi 30 yoshgacha, 16(6) tasi 31-59 yoshni va 2(1) tasi 60 yoshdan oshgani tashkil etgan. Ularning oilaviy ahvoli o'rganilganida, 23(12) nafari oilali, 2(1) nafari oilasi bilan ajralishgan, 1(0) nafari turmush qurmagan ma'lum bo'ldi. Jinoyat sodir bo'lgan oilalarning 4(0) tasida farzandlari bo'lmasa, 9(2) tasida 1 nafardan, 4(5) tasida 2 nafardan, 4(5) tasida 3 nafardan, 2(1) tasida 4 nafar, 1(0) tasida 5 nafar va 2(0) tasida 6 va undan ko'p farzandli oilalarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 1 nafar 1 yoshgacha, 6(8) nafar farzandlar 3 yoshgacha, 14(9) nafar farzandlar 7 yoshgacha, 17(4) nafari 18 yoshgacha bolalarni hamda 16(7) nafari 18 yoshdan yuqori yoshdagi bolalarni tashkil etgan.

O.NORMAHMATOV,
Viloyat sudi raisi o'rinbosari.

JARQO'RG'ON TUMAN HOKIMINING QARORI

Jarqo'rg'on tuman hokimining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishlabarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni 2021-yil 1-iyungacha qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o'z

Uy va turar joyning inventar yig'ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko'chirmalar va nusxalar berish tartibini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo'li bilan hisobga olish to'g'risida»gi 18-son Qarori, «Ko'chmas mulk ob'ektlariga kadastr yig'ma jildini tayyorlash» Qoidalarini (ro'yxat raqami 2725, 03.11.2015 y.), O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig'ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko'chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. «Uy va turar joyning inventar yig'ma

Ushbu toifadagi jinoyatlarning salbiy oqibatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 3(2) ta holatda jabrlanuvchining o'limi, shundan 0(1) ta holatda jabrlanuvchi o'z joniga qasd qilish, 21(11) ta holatda jabrlanuvchi turli darajadagi: 14(5) ta yengil, 5(2) ta o'rtacha og'ir va 2(4) ta og'ir tan jarohati olishi, 4(2) ta holatlar oilalarning buzilib ketishi hamda 1(3) ta holatda boshqa og'ir oqibatlarni keltirib chiqargan.

Bu toifadagi jinoyat-larning kelib chiqishiga mas'ul bo'lgan shaxslar o'rganilganida, 17(10) ta holatda er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik, 1(1) ta holatda qaynoka-qaynona bilan kelishmovchilik, 1(0) ta holatda erning yaqin qarindoshlari bilan kelishmovchilik, 1(0) ta holatda ota-onasi bilan kelishmovchilik, 1(0) ta holatda aka-uka, opa-singil bilan kelishmovchilik, 6(2) ta holatda boshqa qarindoshlar bilan o'zaro kelishmovchilik natijasida kelib chiqqan bo'lsa, kelib chiqishining asosiy sabablari sifatida 2(0) ta holatda oiladagi mulkiy nizolar, 5(5) ta holatda rashk zamirida, 2(2) ta holatda tuhmat va haqorat, 1(1) ta holatda tarbiya masalasi yuzasidan va 17(5) ta holatda boshqa sabablar yuzasidan kelib chiqqanligi aniqlandi.

Shuningdek, bu toifadagi jinoyat ishlari natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqishi tahlil qilinganida, o'zaro rashk va mulkiy nizo sababli qasddan odam o'ldirish jinoyati ham sodir etilgan. Masalan, jinoyat ishlari bo'yicha Qiziriq tuman sudining 2021-yil 12-fevraldagi hukmiga ko'ra, A.Aga JKning 97-moddasi 1-qismi, 227-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan 13 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Ya'ni, A.A. Rossiya Federatsiyasida ishlab yurgan vaqtda turmush o'rtog'i B.B. qarindoshi M.M. bilan unga xiyonat qilib yurgani haqidagi mish-mishlarni eshitib, shubha-gumonlarga oydinlik kiritish maqsadida, Rossiya Federatsiyasidan 2020-yil 3-oktabrda Surxondaryoga qaytib kelib, kelgani haqida hech kimga xabar bermasdan, turmush o'rtog'i B.B.ni Angor tumanidagi "Xolis" mehmonxonasiga chaqirib, mehmonxonada u bilan 2 kun yashab, shu muddat mobaynida B.B.dan qarindoshi M.M. bilan ishqiy munosabatda bo'lib yurganini bilib, rashk zamirida B.B. dan o'ch olish va uni qasddan o'ldirish maqsadida, 2020-yil 6-oktabr kuni soat 18:00 larda B.B.ning ota-onasi yashovchi Qiziriq tumani, "Otlitq" mahallasidagi yuqloviga aldash olib borib, mazkur joyga yetib borgandan keyin atrofda biror kishi yo'qligidan foydalanib, kamari bilan B.B.ni bo'g'ib qasddan o'ldirgan va soylikka kiyimlarini yechgan holda ko'mib yuborgan.

Bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, viloyat sudi tomonidan ayollarga nisbatan oilaviy nizolar negizida zo'raonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq holatlarning oldini olish maqsadida, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari aholi o'rtasida yig'ilishlar o'tkazib, jinoyatchiliklarning kelib chiqishining oldini olish, ma'naviy, tarbiyaviy hamda targ'ibot va tashviqot ishlarni kuchaytirish maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini mutasaddi xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli tadbirlarni belgilab, ularni amalga oshirish choralarini ko'rish uchun viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasiga taqdimnoma kiritildi.

O.NORMAHMATOV,
Viloyat sudi raisi o'rinbosari.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

«Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni (PF-6275-son, 09.08.2021 y.) qabul qilindi.

Farmonga ko'ra:

Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolar ombudsmani) instituti ta'xis etildi; Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari - Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi tugatildi.

Bolar ombudsmani:

o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshiradi, faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdordir; Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

Bolar ombudsmani lavozimiga nomzod Oliy Majlis palatalari ko'rib chiqishi uchun Prezident tomonidan kiritiladi.

Farmonga ko'ra, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralarga komissiyasi Bolar masalalari bo'yicha milliy komissiya etib qayta tashkil qilindi.

Shuningdek, 2021-yil 1-sentabrda quyidagilar tashkil etildi:

Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari kotibiyati tarkibida Bolalarni himoya qilish masalalari sho'basini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar ho-

kimliklarida bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati;

tuman (shahar) hokimliklarida bolalarni himoya qilish sho'balari.

Vazirlar Mahkamasini sho'basini va Vazirlar Mahkamasini kotibiyatining hududiy tuzilmalariga ishga birinchi navbatda "psixologiya", "yurisp-rudensiya" va "ijtimoiy ish" sohalarini bo'yicha oliy ma'lumotga ega fuqarolar qabul qilinadi.

* * *

«Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni (PF-6277-son, 11.08.2021 y.) qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2021-yil 1-sentabrda: 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o'rniga kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi (bolalar nafaqasi) joriy etiladi.

Bolalar nafaqasini tayinlashda:

inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshiriladi;

to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha oshiriladi; uning miqdorini oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilash tartibi qo'llaniladi;

yakka-yolg'iz bo'lgan fuqarolarga, farzandi

NOMUSSIZLIK KASOFATI

Jinoyat va jazo

Dunyoda shunday voqealar bo'ladiki, uni butun insoniyat bilan bo'lishgini, bor ovoza jar solib, odamlarni tezroq xabardor qilish kelaverradi. Ammo insonlarning fe'l-atvorida, xulqida ba'zi bir jirkanch, yaramas illatlar ham borki, ularni birovga shivirlab aylitishga ham istihola qilasani. Go'yoki kimdir gapingga quloq solib turgandek, o'zingni no-qulay seza boshlaysan. Ammo afsus, ba'zi-ba'zida bo'lsa ham oramizda nafaqat o'z nasliga, balki millat, qishloq va ovul sha'niga isnod keltiruvchi kimsalar ham uchrab turadi. Bu singari kimsalar butun millat sha'ni, qadriyatiga soya tashlaydi.

Tumandagi mahallalardan birida sodir bo'lgan bu voqeani eshitgan yosh-u keksa yoqa-

sini ushlab, «Astag'firulloh» deganligi bor gap. Bu voqea oila boshlig'i N.Botirov (ism-familiyalari o'zgartirilgan)ning o'z yaqinlari tomonidan qasddan o'ldirilishi bilan bog'liq.

N.Botirovning 1992-yilda tug'ilgan qizi B. Botirova ishlash uchun Toshkent shahriga ketadi. U o'sha yerda asli Jarqo'rg'onlik, o'zidan 7 yosh kichik, 1999-yilda tug'ilgan S. Qo'shaqov bilan tanishib oladi va oila qurishga kelishib oladi. Va'daga binoan S. Qo'shaqov 2020-yil 18-dekabr kuni B. Botirovning uyiga keladi. Bu uning ushbu xonadonga ikkinchi yo' uchinchi kelishi edi. O'sha yili noyabr oyida kelganida B. Botirovning otasi bilan uchrashib, qizining roziligini so'raydi. Otasi 3 oy uni oziq-ovqat mahsulotlari bilan

bo'lmagan yoki barcha farzandlari 18 yoshdan katta bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanadi.

2021-yil 1-sentabrda bolalar nafaqasi va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lovlarining miqdorlari quyidagicha belgilanadi: bolalar nafaqasining har oylik miqdori:

* 250 000 so'm-3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bitta farzandi uchun, 325 000 so'm-yoshi 3 yoshgacha bo'lgan bitta kichik farzandi uchun; * 150 000 so'm-oilaning ikkinchi farzandi uchun qo'shimcha;

* 100 000 so'mdan-oilaning uchinchi va undan keyingi har bir farzandi uchun; kam ta'minlangan oilalar uchun moddiy yordamning oylik miqdori 380 000 so'm.

Bunda 2021-yil 1-sentabrgacha tayinlangan mazkur turdagi nafaqalar va moddiy yordamning amaldagi miqdorlari hamda ularni to'lash muddatlari saqlab qolinadi.

2021-yil 1-oktabrdan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar manfaatdor vazirlik va idoralarga "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali taqdim etiladi.

Jarqo'rg'on tuman Adliya bo'limi.

TIL - MILLAT KO'ZGUSI

«Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir».

Shavkat Mirziyoyev.

O'zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIV asrga kelib mustaqil o'zbek adabiy tili darajasiga ko'tarildi. Faqat ushbu davrda turkiy til yoki turk tili kabi nomlar bilan atalib kelgan. Hozir turkiy tillarda so'zlashuvchi turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, uyg'ur, qoraqalpoq, chuvash, yoqut, nug'ay va boshqa xalqlar, shu jumladan, o'zbek tilining ajdodlari XI asrgacha qadimgi turkiy tilda gaplashgan. Qadimgi turk tili yaratilgan O'rxun Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yug-nakiyning "Hibatul haqoyiq" kabi asarlari biz-gacha yetib kelgan. Ona Vatanimiz mustaqillikka erishganiga 30 yildan oshdi. Shu qisqa, ammo tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozilgan yillar davomida olamga tatirlik yutuqlar, ulkan g'alabalar qo'lga kiritildi. Shu bilan birga o'z bayrog'imiz, gerbimiz, ona tilimiz, milliy madhiyamiz, milliy valyutamiz, milliy armiyamiz va Konstitutsiyamizga ega bo'ldik. Bizni butun jahon tan oldi! Yuksalish borasida barcha sohalarida judayam ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan ona tiliga yuksak e'tibor tufayli 1989-yil 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida o'zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yildi.

O'zbek tili mustaqil davlatimizning ramzlari qatorida turadigan va qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi taraqqiyotiga qadar shodli va sharafli yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilmoqda. Til-millat ko'zgusi. Til-e'tiqod, iymon masalasi. Til-ma'naviyat masalasi. Til ijtimoiy hayot

degani, muomala madaniyati degani, inson o'z ona tilida o'ylaydi, fikrlaydi, hattoki o'z ona tilida tush ko'radi. Shuning uchun inson qaysi tilni mukammal bilsa, o'sha tilda tafakkur qiladi, fikrlarni tartibga soladi, ularni bir tizimlab ifoda etadi. Yaniki, his-tuyg'ularini ifoda etadi. Qachonki biz tilni hurmat qilsak, uning qadriga yetsak, undan faqat manfaat, foyda olamiz, yon-atrofdagilarga hurmatimiz bo'ladi. Alisher Navoiy hazratlari: "Tilga e'tiborsiz - elga e'tiborsiz", deganida ayni shuni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Demak, tilga e'tibor, tilni yaxshi ko'rish millatni



yaxshi ko'rish deganidir. Tajribalardan ayonki, mu'vaffaqiyat garovi. Ammo o'z milliy tilingni unutish, o'zga tillar bilan chog'ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O'zga tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma'rifatparvar jadedlar ham bu borada ehtiyotkor va mas'uliyatli bo'lishgan. Xususan, Abdulla Avloniy o'z qayg'usini "Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmaktur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmaktadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmaktadurmiz... Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilib, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur", degan o'tli fikrlarida ta'sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda. Milliy tilga e'tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til-milliy urf-odat, qadriyatlarini, milliy ma'naviy meros-manbalarni bilish, o'zlashtirish, yetkazib berish, targ'ib etishda, o'zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O'z milliy tiliga muhabbati yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha.

ta'minlab turish sharti bilan rozi bo'ladi. Ammo oradan hech qancha vaqt o'tmasdan N. Botirov qizi Baxtigulni unga bermasligini, qizini o'zi xotinlikka olishini aytib, fikridan qaytib qoladi. Shunda B. Botirova S. Qo'shaqovga unga uylanishning bitta yo'li sifatida, otasini o'ldirishga, tegishga roziligini aytadi. Xullas, maishiy buzuqlik kasofati oxir-oqibat otaning o'z qizi, xotini va "kuyov"i tomonidan qasddan o'ldirilishiga sabab bo'ldi. Taqdirni qarangki, N. Botirov o'z qizi, ayoli va "kuyov"i tomonidan qasddan bo'g'ib o'ldirildi. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha barcha aybdorlarga O'z JKning tegishli moddalari bilan jazo choralari ko'rildi.

M.MAMATQORIYEV,
JIB Jarqo'rg'on tuman sudi devonxona mudiri.

U.IBADULLAYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Jarqo'rg'on tuman bo'linmasi rahbari.

«HAQ YO'LINDA KIM SENGGA BIR HARF O'QITMISH RANJ ILA, AYLAMAK OSON EMAS HAQQIN ADO MING GANJ ILA».

Alisher Navoiy.

MUALLIM - KAMOLOT CHAROG'BONI



Har yili tabiatda kuzning tarovati ufurib, hatto xazonlar ham oltin rangida tovlanib turgan kezlarda mamlakatimizda 1-oktabr kuni o'qituvchi va murabbiylar bayrami sifatida nishlanadi. Mana shunday kezlarda o'zimga o'zim savollar beraman, maktabga ilk bor qadam qo'gan lahzalari yodimdami, qo'limga birinchi marta qalam tutib, "Ona", "Vatan" so'zlarini yozdigan ustozim-chi, yoki bir partada o'tirib, birga o'sgan do'stlarim... Hammasi yodimda. Menimcha, bunday lahzalarni unutilib bo'lmaydi. Zero yillar davomida erishilgan yutuqlarning barchasida ustozlarning beqiyos hissalari bor. Xalqimiz azal-azaldan ustozlarni e'zozlagan, ularga alohida hurmatu ehtirom bilan qaragan. O'z vaqtida Hazrat Navoiyning otda ketaturib, ustozining farzandi uchrab qolganda, ustoziga bo'lgan hurmati bois otdan tushib salomlashganining o'ziyoq so'zimizga dalildir. Yana bir mulohaza shundaki, 6 asrki Navoiyning barchamiz ustoz deb bilamiz, aslida Mir Alisher Navoiyni ham komillik cho'qqisiga olib chiqib, zullisonayn shoir darajasiga ko'targan ustozlarining ta'limiy bergan saboqlaridir. O'zim ham oldiniga maktabdagi, so'ngra esa oliy ta'lim dargohidagi o'qituvchilarimga havas qilib, o'qituvchilik kasbini tanladim va mana o'ttiz yildirki yuzlab, hatto minglab shogirdlarga murabbiyman. Ularning yutug'i ham, kezi kelganda

xato-kamchiliklari ham meniki. Hanuz o'rgatishdan, to'g'ri yo'l ko'rsatishdan to'lmayman. Mashoyihlardan biri aytganidek, hayot to'nggi nafasga qadar o'rganmoq va o'rgatmoqdan iboratdir. Hozirgi kunda butun mamlakatimiz bo'ylab qariyb 1 million nafar ta'lim sohasi fidoyilari 7 million nafardan ziyod o'quvchi yoshlarga zahmat chekib, ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar. Birgina tumanimizda mavjud 66 ta umumta'lim maktablarida 3435 nafar o'qituvchi va murabbiylar faoliyat yuritmoqda. Ularning hammasini men hech shubhasiz zamonamiz qahramonlari degan bo'lardim. Chunki ertamiz egalari bo'lgan yoshlar taqdiri ularning qo'lida. Shunday ustozlar bor, o'zlariga ajratilgan 45 daqiqadan unumli foydalanib, yurtimiz koriga yaraydigan yetuk kadrlarni ulg'aytirmoqdalar. Ularga har doim ta'zimdamiz. Mana shunday fidoyi ustozlar haqida eshitganimda ushbu so'zlar yodimga tushadi: «Otam meni ko'kdan yerga tushirdi, ustozim esa yerdan ko'klarga ko'tardi». Bu so'zlar ustozlarning mashaqqatli mehnatlariga berilgan munosib bahodir. Va yana ayon haqiqat shuki, qaysi sohada yetuk mutaxassislar bo'lsa, bilingki ularning ortida zahmatini rohat, mashaqqatini mukofot bilan fidoyi ustozlari bor.

Bugun Jarqo'rg'on Yengil sanoat va to'qimachilik kasbhunar kolleji direktoridan, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi deputati sifatida vohadoshlarimizni qiynayotgan bitta bo'lsa ham muammoni bartaraf etib, takliflarini o'rganish harakatidaman. Ustoz deya ardoqlaydigan shogirdlarim va o'z navbatida o'zining ham hurmatim cheksiz ustozlarim, ularga cheksiz rahmatlarim bor. Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz o'qituvchi va murabbiylar!

Matluba MUSTANOVA,
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi deputati.

USTOZLIK SHARAFI

Mukofot muborak

Suhbatdosh haqida: Mamatqulova Nasiba Aliboyevna 1963-yilda Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 1984-yilda Termiz davlat pedagogika oliygohini tamomlagan. 1984-yildan buyon Jarqo'rg'on tumanidagi davlat 12-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi internatida matematika fani o'qituvchisi vazifasida ishlaydi. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi. «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi a'zosi

Oilali. 4 nafar farzandi bor.
-Nasibaxon, Mustaqilligimizning 30 yilligi nishonlangan 2021-yil siz uchun esda qolarli voqealarga boy, omadli keldi. Yurtboshimizning farmoni bilan II darajali, "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandingiz. Avvalo, mukofot muborak bo'lsin!

-Rahmat! Men bu mukofotni jamoamizga berilgan yuksak rag'bat deb bilaman. Mening va men kabi ishlayotgan jamoamizning kamtarona mehnati qadr topganligidan bema'ni mamnunman. O'quvchilarimizni ilm-ma'rifatli, odobli qilib tarbiyalash yo'lida doimo kamarbastamiz.

-Maktab internatdagi sharoitlar, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida nima deysiz?

-Maktabimizning ahlil jamoasiga, o'quvchilariga barcha sharoitlar yaratilgan. Dars mashg'ulotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan doimiy ravishda unumli foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida DTS talablarining bajarilishiga, o'quvchilarning bilim sifatini oshirishga olib

kelmoqda. O'tgan o'quv yilida 11-sinfdagi 15 nafar o'quvchining 5 nafari fizika va matematika fanidan oltin medal bilan tugatdi. 10 nafari esa respublikamizning turli oliy o'quv yurtlarining talabalar bo'lishdi. Respublika onlayn fan olimpiadasida Gulzoda Ismoilova oltin, Aziz Botirov kumush medali sohibi bo'lishdi. Jamoamizning har bir a'zosi yosh avlodga har tomonlama mukammal bilim berishda o'zlarining xizmatlarini ayamayotirlar. Ularning har biri chuqur bilimli, kasbiy bo'lgan chuqur hurmat va fidoyiligi bilan ota-onalar hamda mahalla ahli o'rtasida yuksak e'tiborga egadirlar.

-Muallima baxti nimada?

-Baxt havoda esmaydi, tinimsiz mehnatdan keladi. Bugun kamtarona mehnatimning mevasini shogirdlarimning kamolini o'z ko'zim bilan ko'rib turibman. Bu men uchun juda katta baxt. Shavkatjon, Shuhratjon ismi o'g'illarim rahmatli otasining ishini davom ettirib, aloqa korxonasida muhandis bo'lib ishlashadi. Qizlarim Muazzam va Ruhiyalar o'g'il-qizlarini zamonamizning yetuk farzandlari qilib tarbiyalashmoqda. Shuning o'zi katta baxt emasmi?

...Ha, Nasibaxon haq gapni aytadi. U haqiqatdan ham baxtli ayol, jonkuyar muallima.



MEHROFTOBI

Kasblar ichida eng sharafli va mashaqqatli o'qituvchilik ekanligi barcha soha vakillariga oynadek ravshan. Bunday ulug' maqsadga maktabimiz jamoasi o'zlarining fidoyiligi, izlanuvchanligi hamda o'quvchilar qalbiga o'zlarining insoniy fazilatlarini singdirish bilan erishmoqda.

Ayni paytda maktabimizda 256 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Ularga 27 nafar tajribali ustozlar turli fanlardan dars berishadi. "Ustoz-shogird" an'anasi asosida yosh o'qituvchilar tajribali ustozlar bilan birgalikda mashg'ulotlar olib borib, o'zlarining bilimlarini mustahkamlashmoqda. Har oyda maktab metodika kengashi, fan uslubiy birlashmalari va pedagogika kengashlari ish rejalarini asosida turli xil tadbirlar o'tkazilib turiladi.

Dilafroz Xo'jageldiyeva va Xursandoy Abduraimova singari oliy toifali o'qituvchilarimizning ish tajribalari viloyat bo'yicha ommalashtirildi. Shahlo Tursunova, Ozoda Mamatrahimova kabi o'qituvchilarimiz esa har bir darsga puxta hozirlik ko'rib, yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishmoqda. O'quvchilarimiz ham tumanda va viloyatda o'tkazilayotgan fan bellashuvlarida faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashmoqda. Shuning uchun

2020-2021 o'quv yilida 11-sinfni tamomlagan 18 nafar o'quvchimizning 7 nafari turli xil oliy o'quv yurtlarining talabalar bo'lishdi.

Maktabimizning har bir o'qituvchisi yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy darsliklar, yangi axborot texnologiya vositalaridan unumli foydalangan holda dars samaradorligini va sifatini yaxshilash ustida tinmay ish olib bormoqda. Ular uchun barcha sharoit yaratilgan. Maktabda kutubxona, sport va fan to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Sinfxonalar kompyuterlashtirilib, o'qituvchilar xonasiga televizor o'rnatildi. Barcha kompyuterlar internet tarmog'iga ulandi.

Maktabga ilk bor qadam qo'ygani jangi o'g'il-qizlarning ilmga intilib, ona Vatanimizga, ustozlariga bo'lgan mehnatini, ko'zlaridagi quvonchni ko'rib beixtiyor shodlanib ketaman. Ular ezgu orzular og'ushida nurl kelajagini yaratishni istaydi. Muallimlarimiz esa ustoz sifatida umr daftarini "shoh satrlar-la bezab..." borishmoqda. Qalbida mehr oftobi charaqlagan barcha ustozlarimizga kasb bayramlari muborak bo'lsin!

Mamayusuf NORMURODOV,
Jarqo'rg'on tumani 50-umumta'lim maktabi direktori.

SPORT DOIMIIY HAMROHI



Mamlakatimizda jismonan sog'lom, aqlan yetuk avlodni voyaga yetkazish maqsadida yoshlarni sportga keng jalb etish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shahar va qishloqlarda davr talabiga mos zamonaviy sport inshootlari qurilib, sportchi yoshlar ixtiyoriga topshirilmoqda.

Manzura Tursunova ana shunday sport inshootining murabbiyi, 2017-yildan buyon Jarqo'rg'on tumani Bolalar-o'smirlar sport maktabining kurash sport turi treneri. 2006 yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya oliygohini tamomlagan. Yurtboshimiz farmoniga ko'ra mustaqilligimizning 30 yilligiga "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

-Ustozimni yuksak mukofot bilan birinchi bo'lib tabrikladim-deydi shogirdi Lobar Xurramova. -Ochig'i, bu xushxabarni eshitib, sport maktabi jamoasi behad xursand bo'ldi. Yosh, shijoatkor, g'ayratli sportchi qizimizni yuksak mukofot bilan qizg'in muborakbod etamiz.

-Sport doimiy hamrohimiz, -deydi Manzura so'zini davom ettirib, -maktabimizda nafaqat o'quvchilar, qolaversa o'qituvchilar o'rtasida ham tez-tez sport musobaqalari o'tkaziladi. Yaqinda voleybol, stol tennis, shaxmat, yengil atletika, qo'l to'p bo'yicha kechgan musobaqalarda o'qituvchilarimiz faol ishtirok etishib, faxrli o'rinlarni egallashdi.

Ha, sport Manzura Tursunovaning doimiy hamrohi bo'lib kelayotir. Kurash bo'yicha milliy toifadagi hakam, 1 ta oltin, 3 ta kumush, 5 ta bronza medallari sohibasining 30 ga yaqin shogirdlari oliy o'quv yurtlarida imtiyozli ravishda taxsil olishmoqda. Ish faoliyati davrida 15 nafar O'zbekiston sport ustasi, 2 nafar xalqaro toifadagi sport ustalarini yetishtirdi. 3 nafar shogirdi jahon chempionatiga, 2 nafari esa Osiyo chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Yurtboshimizning mamlakatimiz sportiga bo'lgan g'am-xo'rliqi tufayli bu sohaga e'tibor kuchaydi. Sportning ommaviyligini ta'minlashga erishilmoqda. Qishloqning oddiygina, yosh, g'ayratli, shijoatkor qizi bugun sovrindor bo'ldi. U butun ilmimi, bor kuch-quvvatini o'zi sevgan kasbga, sportga baxshida etish orzusida yashamoqda. Uning yuksak orzulari ushalaversin, deymiz.

P.SOLIYEV.

BOLALARGA MEHRIM DUNYODEK...

Hayotda o'z oldingga maqsadlar qo'yish, yuksak marralar sari intilish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, o'z sevimli kasbingda faoliyat yuritish ham g'oyatda muhimdir. Bejizga bizga maktabda o'qib yurgan kezlrimizdanoq kelajakda kim bo'lishimiz so'ralmaydi yoki ustozlarimiz ayni shu mavzuda insholar yozdirishmaydi. Men ham esimni tanibmanki, bolalarga mehrim dunyodek. Ular bilan ishlash jonu dilim. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi, ya'ni bolalar tili bilan aytganda "bog'cha opa" bo'lishni go'dakligimdan qozonganman. Maktabni tugallab Termiz pedagogika kasb-hunar kolleji ta'lim oldim va mana besh yildirki, tumandagi 5-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachim. Kichikintoylar bilan ishlashning mushkul tomonlari ham o'ziga yarasha zavqi ham bor. Ta'lim tashkilotimizda doimiy ravishda o'tkazib boriladigan tadbirlar, bayramlarda tayyorlov guruhi bolajonlari ham faol ishtirok etadilar. Qo'shiqlar aytishadi, she'rlar yod oladilar, qizchalar raqslarga tushadilar. Ularning bu kabi faolliklari meni yanada ilhomlantiradi. Kuni kecha ta'lim tashkilotida o'tgan kuz faslining an'anaviy tadbirlaridan bo'lgan "Mehrijon" saylida ham guruhimdagi bolajonlar bilan qatnashdik. Kuz saxovati hamda oltin rangga belangan tabiat tarovati kichikintoylar ijrosida behad go'zal talqin qilindi. Bu kabi tadbirlarning barchasi kichikintoylarni biyron so'zlashga, teran fikrlashga, dunyoqarashini boyitishga xizmat qilishi shubhasiz. Ayni shu sabab ta'lim tashkilotimizda turli tadbirlar va bayramlar bardavom. Meni tarbiyachi opa, qolaversa ona sifatida yana bir quvontirgan jihat shundaki, bolalar hozirdanoq kelajakda egallaydigan kasblarini rejalashtirishadi, tinmay savollar berishadi. Jajji Mahliyo o'qituvchi bo'laman desa, 5 yashar Boburjon harbiy bo'lishni maqsad qilgan, Mubina shifokor, Aziza tikuvchi, Sherzod esa uchuvchi bo'lmoqchi, Mavluda men ham sizdek "bog'cha opa" bo'laman deganda beixtiyor quvonchga to'laman.



Men faoliyat olib borayotgan 5-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida xuddi men kabi 10 nafar tarbiyachilar ham fidoyilik bilan ishlab kelmoqdalar. MTT direktori Manzura opa Yahyoyeva bizga doim tarbiyachilik mashaqqatli ekanligini, bolalar bilan ishlash oson emasligini va o'z kasbimizga siddiqdildan yondashishimiz zarurligini uqtirib keladilar. Jami 210 o'ringa mo'ljallangan MTTga uzoq yaqin mahallalardan kichikintoylar kelishadi. Ularning har biri bizga o'z farzandimizdek. MTTda faoliyat olib boradigan badiiy gimnastika, ingliz hamda rus tillari to'garaklari ham doimiy ravishda bolalar bilan gavjum. Jamoamiz bilan kelishgan holda yaqin kunlarda to'garaklar sonini yana oshirishni niyat qilganmiz. Xulosa o'rinda aytishim mumkinki, bolalar bilan ishlash biz tarbiyachi opalarning qalbimizni ham beg'uborlik va samimiyatga to'ldiradi.

Iroda ALLAMURODOVA,
5-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.

VAQTNING NARXI QANCHA?

Ibratli hikoyat

Bir xasis boy butun umrini faqat boylik to'plashga sarflab yashagan ekan. U bir kun o'tirib to'plagan boyligini hisoblay boshlabdi, qarasa hamma boyligi 300 ming tillo dinor to'plabdi. Endi o'tirib reja tuza boshlabdi. Bundan buyog'iga molu davlat yig'mayman, balki to'plagan boyligimni maza qilib yeb-ichib, o'ynab kulaman, debdi. Shu payt qarshisida O'lim farishtasi paydo bo'libdi.

-Kimsan?
-O'lim farishtasiman.
-Nega kelding?
-Jonimgi olgani!
-Yo'q, yo'q, men hali hayotga to'ymadim, shuncha vaqtim faqat mehnatga ketdi, endi rohatini ko'ray deganimda jonimni olasanmi? Ket bu yerdan!
-Kuning bitdi, men kechiktira olmayman, men buyruqni bajaraman.
Boy masala jiddiyigini tushungach, hiylaga o'tdi.
-Uch kungina vaqt ber, pullarimni taqsimlab, uch kungina yaxshi yashab olay. Senga elik ming dinor beraman.

-Yo'q, menga boylik unuman kerak emas, men jon olaman xolos.

-Ikki kun muhlat ber, yarim boyligimni beraman. O'lim farishtasi yana o'sha javobni aytdi.

-Hamma boyligimni ol, bir kungina vaqt bergin, - deb yalindi, boy.

-Yo'q!-dedi farishta qat'iy.
-Unda ikki og'iz so'z yozishga vaqt bergin, - dedi boy. Buni-siga farishta rozi bo'ldi. Badanini tilib, qon ila devorga quyidagilarni yozdi: «Ey boylik ketidan yugurib, umrini zoe qilgan banda! Umringning, vaqtningning qadriga yet, men shuni anglab yetdimki, har qancha boyliging bo'lmasin, unga vaqtni sotib olib bo'lmas ekan, 300 ming dinorga bir kungina vaqt sotib olnolmadim, bebaho vaqtni qadrsiz boylik topishga sarflama!» Bundan har bir kishi o'ziga to'g'ri xulosa chiqarib, umrlari lahzalarni foydali, savobli, ezgu ishlarga sarf etishga yaxshi bo'lardi.

T.BO'RIYEV,
Jarqo'rg'on tumanidagi "Hazrati Bilol" jome masjidi imom xatibi.

Mushoira etadi davom...

USTOZ

Halollik, poklikda doim ibratli,
Ilm o'rgatishdan tolmaydi aslo.
Farishtaday nurl, ming bir xislatli,
Dunyoga mehr-la sohadli ziyo.



O'rgatdingiz hayot sirlarini,
Tabiatga etdingiz oshno.
Yer-u osmon, sahro-yu ummon,
Barchasiga bo'ldim men shaydo.

Ma'rifat bog'ida o'stirib nihol,
Parvarish aylagay, aylagay e'zoz.
So'rab yosh avlod-u ham iqbol,
Kelajakni o'ylab yashaydi ustoz.

Onadek mehrbon, onadek ulug',
Mehr nuri birla hayot charog'on.
Ustoz bor kelajak nurafshon yorug',
Kamolini, iqbolini topar har inson.
Maftuna QURBONOVA, 16-maktab targ'ibotchisi.

VAQT

Uni hamma kutadi,
U hech kimni kutmaydi.
Kimdir qadriga yetar,
Kimdir esa yetmaydi.

Kimga sekin, kimga tez,
U hammaga har xildir.
Uning oldida barcha,
Shohu gado bir xildir.
Laylo OCHILDIYEVA,
52-maktab o'quvchisi.

YAXSHI NIYAT

Deydilar tavbadan gunohlar ketar,
Deydilar kesilmas tavba qilgan bosh.
Har kimning shu so'zga qudrati yetar,
Har kimda topilar shu so'zga bardosh.

Najot istovchiga tavba dastyordir,
Ummi har nega sovurish gunoh.
Bu so'z balolardan asrovchi goya,
Tavba bu duodir, duodir tavba.

Benuqson Allohdir banda-chi g'ofil,
Bilib-bilmay gohi yo'lin yo'qotar.
Bu yorug' olamda qaysi musofir,
Yaxshi niyat qilsa manzilga yetar.

Aziza MAMADALIYEVA, 41-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

KITOB

Kitob o'qigan sari,
Sirlarin ochar olam.
Kitob mening sirdoshim,
Sadogatli dugonam.
Pand bermaydi sira ham,
Doim o'rgatar ilm.
Uni qancha o'qisam,
Shuncha olaman bilim.
Qo'ldan tushmas kitobim,
O'rganaman doimo.
Go'yo ko'kada oftobim.
Xazinadir u tanho.
Bobom ko'p o'qi deydi,
Uqqin deydi ustozim.
Doim g'amimni yeydi,
Bitmas ulardan qarzim.
Kitob bilan do'st bo'ling,
Doim shirin so'z bo'ling,
Vatan uchun fidoyi,
Dono o'g'il-qiz bo'ling.
Kutubxona-nurxonam,
Chorlab turar har damda.
Biz uchundir imkonlar,
Bordir har bir qadamda.
Bo'sh vaqtigingiz bo'lmasin,
Qo'lingizda kitob bor.
O'qigan uqqaningiz,
Yo'lingizda oftob bor.
Pokiza QARSHIYEVA,
43-maktab o'quvchisi.

ISTAYSANMI...

Istaysanmi osmon bo'laman,
Quyoshi bor, tiniq va moviy.
Intilmoqqa imkon bo'laman,
So'ngra ishq ham bo'lar ilohiy.

Istasang gar oftob bo'laman,
Ko'kdan nurlar bo'lib yog'aman.
Tunlar singib samo bag'riga,
Tongda yana senga chopaman.

Istaysanmi bulut bo'laman,
Do'ng yomg'irga aylanish uchun.
Dunyosiga keldim shekilli,
Bir senga yor saylanish uchun.

Men ham istaklarimni aytay,
Hovuchingda duo bo'laman.
Ko'nglingga kirmoq uchun atay,
Istaysanmi, havo bo'laman.

Xohla osmon, xohla quyosh bo'l,
Faqat nurdan zulmatga borma.
Faqat qalbm bilan sirdosh bo'l,
Qo'llarimni qo'yib yuborma...

Istaysanmi orzu bo'laman,
Ushalaman o'ylashing bilan.
Ko'zlaringda kulgu bo'laman,
Men haqimda so'ylashing bilan.

Sohiba MENGATOVA.

OILAVIY POLIKLINIKA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Jarqo'rg'on tuman Tibbiyot birlashmasiga qarashli 27-sonli oilaviy poliklinika binosi ta'mirlalib bo'lib qolganligi bois joriy yilning mart oyidan mukammal ta'mirlanishga yopilgan edi. Mazkur oilaviy poliklinikaga mahalliy byudjet hisobidan 562 mln. so'm mablag' ajratilib, Bahromjon Shaydullayev rahbarligidagi "Surxon Kuhinur" MCHJ quruvchilari tomonidan qisqa muddatda mukammal ta'mirdan chiqarilib, qayta foydalanishga topshirildi. Muhtasham binoning kommunikasiya tarmoqlari: issiq va sovuq suv, isitish tizimi, kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi shifokorlar tibbiy xizmatiga qulayliklar yaratgan. Shunisi quvonarliki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muassasaning internet tarmog'iga ulanganligi zamonaviy kompyuter texnikasi imkoniyatlaridan foydalanish sharoitini yaratmoqda.

Tadbirda tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i U.M.Mo'minov, "Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Saodat Norg'ucheva, mahalla faollari hamda tibbiyot xodimlari ishtirok etdilar.

Tadbirda ishtirok etganlar O'zbekistonni yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan ijtimoiy sohani rivojlantirish,



"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da mazkur imkoniyatlarining yaratilishi xalqimiz salomatligini saqlashda tibbiyot xodimlariga keng imkoniyatlar berishi, galdagi vazifa-ko'tarinki ruhiyat tibbiy xizmatni tashkil etish va xalqimiz ishonchini qozonishdan iborat ekanligi to'g'risida o'z fikrlarini bildirdilar.

E.HAYDAROV,
tuman Tibbiyot birlashmasi sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish bo'limasi oliy toifali shifokori.

AHOLINI RO'YXATGA OLISH - MUHIM JARAYON

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha Prezident farmoni bilan tasdiqlangan, tarkibi bir qator vazirlik va idoralardan iborat Respublika komissiyasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy komissiyalar ish olib borayotir. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, jarayonga 150 mingdan ortiq xodimlar jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Aholini ro'yxatga olish ishlari uchta bosqichdan iborat bo'lib, belgilangan amaliyotga kirishgunga qadar 2020-2023-yillarni o'z ichiga oluvchi tayyorgarlik jarayonlari olib boriladi. Qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish Dasturiga ko'ra, 2021-yilning 1-25-noyabr kunlari Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnabod tumanlarida aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi. Bunda aholini ro'yxatga olishni tashkil etish jarayonlari, ro'yxatga olish usullari, dasturi, savolnomalari, uslubiy qo'llanma hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar amaliy sinovdan o'tkaziladi. Natijalar asosida aniqlanadigan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi.

Tayyorgarlik jarayonidagi eng muhim masala aholi o'rtasida ro'yxatga olishda faol ishtirok etish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borish hisoblanadi. Shu maqsadda

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tadbirning shiori va logotipi ishlab chiqilib, aholini ro'yxatga olishning rasmiy veb-sayti (aholi.stat.uz) yaratildi. Bu borada ro'yxatga oluvchilarni tanlash va o'qitish masalasi ham nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki ma'lumotlarning to'g'ri bo'lishi bevosita ularning malaka va amaliy ko'nikmalariga bog'liq. Shu bois, jarayonga jalb etiladigan xodimlar Davlat statistika qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan reja-jadval asosida maxsus o'qitiladi. Ular uchun uslubiy qo'llanma va videodarsliklar ishlab chiqilib, zarur hollarda, qo'shimcha maslahatlar beriladi.

Aholini ro'yxatga olish jarayonlarini xalqaro talablarga mos va sifatli o'tkazishda kartografik materiallarning aniqligi ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda aholini ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan miqdorda kartografik materiallar (shahar va qishloq aholi punktlarining sxematik rejalar va xaritalari) bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi. Aholi punktlari va ko'chalarning nom belgilari o'rnatish, xonadon va uylarni to'liq raqamlash ishlari yakuniga yetkazish vazifasi qo'yildi. Milliy gvardiya va ichki ishlar organlariga esa aholini ro'yxatga olish ishlari jalb etiladigan xodimlar xavfsizligini ta'minlash topshirildi.

E.XUSHBOQOV,
Jarqo'rg'on tuman Statistika bo'limi boshlig'i.

50 NAFAR YOSHLARGA HAYDOVCHILIK GUVOHNOMALARI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaasiga ko'maklashuvchi Vatandarlar tashkiloti Jarqo'rg'on o'quv sport texnika klubi jamoasi xarid qilgan mashinani qayta ta'mirlatib, joriy yilning 20-sentyabr kuni klubda tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir tuman hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi hamda Jarqo'rg'on o'quv sport texnika klubi hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, bundan 4 oy oldin o'qishni boshlagan «Temir daftar»ga kirgan oila farzandlari hamda «Yoshlar daftariga» kiritilgan yoshlardan 50 nafariga haydovchilik guvohnomalari topshirildi. Gap shundaki, mazkur haydovchilik kursini tamomlagan yoshlarning haydovchilikni o'rganish o'ylik xarajatlarini tuman hokimligi tomonidan to'lab berildi. Bugungi kunda hatto bir nafar yoshni ish bilan ta'minlash yoki bitta yangi ish o'rni yaratishga juda muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, 50 nafar yoshlarga haydovchilik guvohnomalari topshirilishi shuncha yoshlarni ish bilan ta'minlash demakdir. Zero xalqimizda shunday hikmat bor: «Hunarli xor bo'lmas».

Shuningdek, tadbir nihoyasida darslarda faollik bilan ishtirok etgan 6 nafar yoshlarga Jarqo'rg'on o'quv sport



texnika klubi rahbari o'rinbosari A.Mamadaliyev tomonidan «Tashakkurnoma»lar topshirildi.

S.GULBOYEVA.

Yoshlar bandligiga hissa

Bolalar teatri

QO'G'IRCHOQLAR TILGA KIRGANDA

Tuman Madaniyat bo'limi qoshida tashkil etilgan shunday badiiy jamoa bor. Surxon yosh tomoshabinlar teatri jamoasi. Jamoa rahbari B.Xolijarov. Ushbu jamoaning boshqarilgan farqi shundaki, unda turli tomoshalarda qo'g'irchoqlar ustasi, rassom Elmurod O'tayorov tomonidan tayyorlangan qo'g'irchoqlar so'zlaydi, o'zbek xalq ertaklari sahnalashtiriladi. 9 kishidan iborat jamoada har kuni o'ziga xos yangiliklar bor, har kuni yangidan yangi qahramonlar. O'rmon qiroli sher, sahro kemasi tuya, tinchlik elchilari laylaklar, yo'lbars, maymun kabilar shu qadar mahorat bilan tayyorlanganki, parda ortidan ularning jirosini kuzatgan bolajonlar o'zlarini beixtirib ertaklar olamiga tushib qolgandek his qiladilar. Jamoa 2018-yilda faoliyat boshlagan, oradan o'tgan qisqa fursat mobaynida 20 dan ortiq bolalar adabiyotining eng sara namunalarini sahnalashtirildi, bayram tadbirlarida omma e'tiboriga havola etildi va o'zining tumanimiz bo'ylab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida minglab muxlislariga ega bo'ldi. "Imtihon", "Sehrgarning sirli sinovi", "Poraxo'rluk kasofati", "Shum bola", "Chala pishgan qushchalar" singarilar yuqorida keltirganimiz asarlar jumlasidandir.

- Bolalar bilan ishlash ham qiziqarli, ham mashaqqatli. Kattalarning xohishini anglash oson. Ammo kichikintoylar o'z olamlarida yashaydilar. Ularning savollari ham ko'p, tasavvuri boy. Shu bois, tayyorgarlik jarayonida har bir detalga ahamiyat berishga harakat qilamiz. Sh.Bozorov, M.Xolijarov, O.Tilovmurodov, S.Xushboqovlar bu borada ancha yillik tajribaga ega jamoadoshlarimizdan,-deydi jamoa rahbari B.Xolijarov.



Darhaqiqat, qo'g'irchoqlarni jonlantirish, ertaklar orqali bolalarni ezigulikning yovuzlik, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonch hissini uyg'otishning ham o'ziga yarasha mashaqqatli borligini sahnalashtirilgan tomoshalardan ham angladik. Jamoa faoliyatiga 3 yil bo'ldi va bu u qadar uzoq muddat emas, bolajonlar qalbini yaxshilik nuri bilan nurafon qilish hali uzoq yillar davomida bardavom bo'lsin! (Suratda: Surxon yosh tomoshabinlar teatri jamoasi ijod jarayonida).

Sohiba MENGATOVA.

ENDI SIZNI QAYDAN TOPAY?..

(Marhum do'stim Abdurazzoqxon Muxtorov xotirasiga)

Huvillaydi xonadoningiz,
Chirqiraydi bolalaringiz,
Dilda ohu nolalarimiz,
Endi sizni qaydan topay?

Qol dedingiz qololmadik,
Endi sizni qaydan topay?

Farishtadek kelardingiz,
Ko'ngilni shod qilardingiz,
Ezguliklar tilardingiz,
Endi sizni qaydan topay?

Yashardingiz ziyo bo'lib,
Do'st-u yorga fido bo'lib,
Qoldik sizdan judo bo'lib,
Endi sizni qaydan topay?

So'zlaringiz qulog'imda,
Bo'yalaringiz dimog'imda,
O'lmagansiz hayolimda,
Endi sizni qaydan topay?

Alloh sizni qilsin rahmat,
Makoningiz bo'lsin jannat,
Unutmaymiz... lekin, faqat,
Endi sizni qaydan topay?

Dardingizni ololmadik,
Tez-tez yo'qlab borolmadik,

Nur yog'ardi yuzingizdan,
Bol tomondan so'zingizdan,
Gullar unar izingizdan...
Endi sizni qaydan topay?

Abdusalim APPOQOV,
mehnat faxriysi.

Mutaxassis ogohlantiradi

QUTURISH - BEDAVO DARD

Quturish kasalligi odamlarga asosan quturgan itlar va mushuklarning, shuningdek yovvoyi hayvonlarning (bo'ri, chiyabo'ri, tulki va boshqalar) tishlashi (tirnashi, so'laklashi) natijasida hayvonlarning so'lagi orqali odamlarga yuqadi. Kasallikni qo'zg'atuvchi virus quturgan hayvonlar so'lagida bo'ladi.

Kasallik hayvonlardan hayvonlarga va hayvonlardan odamlarga yuqadi.

Bugungi kungacha quturish kasalligining davolash usullari ishlab chiqilmagan.

Shu bois ham biz kasallikni davolashni emas, balki uning oldini olishni o'yashimiz kerak. Quturish kasalligining oldini olish bilan nafaqat veterinariya va tibbiyot sohalari xodimlari, balki barchamiz, har birimiz shug'ullanishimiz kerak va shart.

Quturish kasalligining oldini olishda, hayvonlarni, ayniqsa itlarni saqlash qoidalariga rioya qilish, odamlarga quturish kasalligining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ming afsus bilan ta'kidlash joizki, aksariyat fuqarolarimiz it saqlash qoidalariga rioya qilishmaydi, itlarni o'z vaqtida veterinariya ko'rigidan o'tkazib, quturish kasalligiga qarshi emlatishmaydi.

Ota-onalar bolalarni itlar bilan, ayniqsa ko'chadagi daydi, qarovsiz itlar bilan o'ynashlariga, ularni uyga olib kelishlariga zinhor yo'l qo'ymasliklari kerak, zero e'tiborsizlik va loqaydlik so'nggi pushaymonga aylanmasin.

Ko'chada qarovsiz va daydi itlar odamlar uchun quturish kasalligining asosiy manbasi ekanligini unutmashimiz kerak.

Bu bedavo quturish kasalligining saqlanish uchun nimalar qilish kerak? Javob oddiy, faqat har bir fuqaro quturish kasalligining oldini olish bo'yicha quyidagi «Oltin qoidalariga» amal qilishsa bas:

-it saqlash qoidalariga puxta va muntazam amal qilish;

-itlarni hududiy veterinariya xizmati idorasiga o'z vaqtida hisobga qo'yib, quturishga qarshi emlatish;

-bordiyu biror bir hayvon tishlasa, zudlik bilan tibbiy yordamga murojaat etish va mutaxassis vrachning tavsiyasiga ko'ra quturish kasalligiga qarshi emlatish.

Hurmatli fuqarolar, ushbu tavsiyalarga amal qilsangiz, bu dahshatli kasallikdan o'zingizni asrasangiz.

I.YORMATOV,
B.JO'RAYEV,

Jarqo'rg'on tuman SEO va JS bo'limi mutaxassislari.

O'simliklar karantini

«ANOR MEVAXO'RI»

Uning tuxumdan chiqqan qurtchalari anor mevalarining qobig'ini, yo'ldoshi, eti va danak mag'zi bilan oziqlanadi. Qurtlar oziqlanayotganida mevalarini o'z axlati bilan ifloslaydi va bunday mevalar chiriydi. Qurt tushgan mevalarning ichi qurumsimon qora zamburug'lar bilan qoplanadi va ular iste'molga yaramaydigan bo'lib qoladi. Bu qurtlar ba'zi bog'larda anor hosilining 20-70 foizini nobud qiladi. Mavsum davomida o'rtacha sharoitlarda 5-6 tagacha avlod berib rivojlanadi.

Anor mevasini import qilayotgan davlatlar (Xitoy,

Koreya va boshqalar) anor mevalarining «Anor mevaxo'ri» va boshqa zararkunandalardan toza hamda sifatli bo'lishiga yuqori darajada talab qo'yimoqdalar. Shunday ekan, anor hosilini toki uning gullash davridan boshlab hashoratlardan himoya qilish choralarini o'z vaqtida ko'rish lozim. Tegishli mutaxassislarga murojaat qilib, ko'mak va tavsiyalar olish kerak.



O.SAIDOV,
B.ASHUROV,
Jarqo'rg'on tumani O'simliklar karantini va himoyasi agentligi inspektorlari.

MEHMON HAQQI

G'arblik bir musulmondan suxandon so'radi:
- Nima uchun musulmon bo'lgansiz?
U shunday javob qildi:
- 1993 yilda turmush o'rtog'im bilan Turkiyaga safar qildik. Qishloqlardan birida yo'lni yo'qotib qo'ydik. Bir yo'lovchidan: Ushbu manzili bilasizmi deb so'radim.
U : - Bu yerda mehmonxonaga yo'q. Men bilan uyimga yuringlar. O'sha yerda tunaysizlar,-dedi.
Biz uning uyiga bordik. Juda ham qorong'u edi. Uyga kirsak, u yerda besh bola va ikki qariya er-xotin bor ekan. Bizga kamtarona taom keltirishdi. Uni yedik.
Keyin uy sohibi menga:
-Sen xotining bilan shu xonada dam ol. Biz boshqa xonada tunaymiz, dedi.
Biz uxladik. Ertalab turib uy sohibiga rahmat aytish uchun tashqariga chiqdim. Qarasam, biz tunagan xonadan boshqa xona yo'q ekan. Uy sohibini qidirdim. U oilasi bilan hovlida daraxt ostida yotar edi.

Men unga:
- Sen jinnimsan, nega bunday qilding?,-dedim.
U : - Men jinni emasman. Men musulmonman. Dinim meni mehmonni qo'limgan kelganicha iznat-ikrom qilishni buyurgan. Sen esa mehmonimsan,-dedi.
Xotinim bu manzarani ko'rib yig'lab yubordi. Men uy sohibiga:
- Unday bo'lsa bu Islom biz eshitgan islom emas. Men qanday qilib Islomni o'rganishim mumkin,-dedim.
U : - Qur'on va Hadislarning tarjimasini olasan. Ularni o'qib Islomni taniysan,-dedi.

Men u aytgan kitoblarni olib ikki oy Islomni o'rgandim va bu dinga kirganimni e'lon qildim. Keyin o'z gardanimga Islomga da'vat qilishni vazifa qilib oldim. Qo'limga mingdan ortiq kishi Islomga kirdi. Rumihiyada Islom markazi qurib butun dunyoga bu dini tarqatishni niyat qildim...

To'plovchi:
O.TURDIMURODOVA.

Eshqobilov Ismadiyaro Tojievichga Termiz RIBdan 1995-yilda berilgan O'z A № 625247 raqamli Ogohlantirish taloni yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

Mirzayev Muxriddin Murod o'g'liga 2016-yilda Jarqo'rg'on axborot texnologiyalari kasb-hunar kolleji tomonidan berilgan K № 4316264 raqamli diplom yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

Xudoyonazarova Muqaddas Usmonovnaga 1994-yilda Jarqo'rg'on tumanidagi 17-sonli umumta'lim maktabi tomonidan berilgan A № 168565 raqamli attestat yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

Jarqo'rg'on tumanidagi 46-umumta'lim maktabi tomonidan Yusufov Jasurbek Zokirjon o'g'liga berilgan UM №100211 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

Jarqo'rg'on tumani «Hayitobod» MFYdagi «YaTT Ergashev Muxriddin»ning dumaloq muhri yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

Qilichev Ulaboymga Termiz RIBdan 2017-yilda berilgan AD № 599648 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

2015-yilda Termiz RIBdan Ro'ziyev Erali Yarash o'g'liga berilgan AD № 132904, 2008 yilda Payanov Sherzod Rustamovichga berilgan AA №098220 raqamli haydovchilik guvohnomalari yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

2005-yilda Jarqo'rg'on tumanidagi 6-maktabdan Mirzayev Sherzod Raxmatullayevichga berilgan O'R-Sh №0154388 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi **ma'lum qilinadi.**

«Jarqo'rg'on»

gazeta tahririyati MCHJ

Bosh muharrir:
PAYANOV
Alisher
Mamayusupovich

Surxondaryo viloyat matbuot va axborot hududiy boshqarmasida
11/041-raqam bilan 2012 yil 6 yanvarda qayta ro'yxatdan o'tgan. Indeks: 6512.

ISSN 2181-6824

Tahririyat manzili: 190600, Jarqo'rg'on shahri, Navbahor ko'chasi, 3-uy.
Tel: 76-43-21-661.

e-mail:
jarqurgon_1983@inbox.uz

RB - reklama belgisi.

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Surxana» gazetalar tahririyati bosmaxonasida A-2 hajmda, 2 bosma ta'biqda chop etiladi.
Bosmaxona manzili:
Termiz shahri, «Shukrona» ko'chasi, 21-a uy.

Gazeta sifatiga bosmaxona mas'uldir.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Sahifalovchi: S.Mengatova.
Harf turuvi: K.Bazanova.

Internetdagi saytimiz:
www.jn-gazeta.uz

Gazetaning o'z vaqtida yetib borishi uchun obuna qilgan tashkilot mas'uldir.

Navbatchi:
PAYANOV Alisher Mamayusupovich.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Sotuvdagi bahosi kelishilgan narxda.
Boshiga topshirildi 27.09.2021 yil, soat:13:00 Bosildi: 14:00
Adadi 2362 nusxa. Buyurtma f-